

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

ZARARLANGAN HUDUDLARNING O'SIMLIKLAR QOPLAMINI QAYTA TIKLASHDA TUPROQ SUV O'TLARINING ISHTIROKINI BAHOLASH BO'YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR TAHLILI

Do'stmatova I.T¹, Sultonova O.I.²

¹Biologiya mutaxassisligi magistranti;

²Biologiya yo`nalishi talabasi

Namangan davlat universiteti e-mail: repititor_bio@mail.ru

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada zararlangan hududlarning o'simliklar qoplamini tiklashda suv o'tlarning ishtirokini baholash bo'yicha olib borilgan bir nechta tadqiqotlarning tahlillari keltirilgan. Zararlangan hududlar bugungi kunda tuproq ekologiyasi uchun juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tabiiyki bu hol, u yerda rivojlanayotgan o'simliklar qoplamiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni tur tarkibini kamayishiga olib keladi. Bu borada o'simliklar qoplamini qayta tiklash bo'yicha dunyo bo'ylab ko'plab samarali ishlar olib borilgan, ammo suv o'tlar ishtiroki kam baholangan va bu masala dolzarbligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. suv o'tlar, zararlangan hududlar, sement zavod, o'simliklar qoplami.

АННОТАЦИЯ. В данной статье представлен анализ ряда исследований, проведенных по оценке участия водорослей в восстановлении растительного покрова поврежденных территорий. Сегодня поврежденные территории оказывают крайне негативное влияние на экологию почв. Естественно, такая ситуация серьезно влияет на развивающийся там растительный покров. Это приводит к уменьшению видового состава. В связи с этим во всем мире проведено много эффективных работ по восстановлению растительного покрова, однако участие водорослей недооценивается, и этот вопрос приобретает все большее значение в силу своей актуальности.

Ключевые слова. водоросли, поврежденные участки, цементный завод, растительный покров.

ANNOTATION. This article presents the analysis of several studies conducted on the assessment of the participation of algae in the restoration of vegetation cover of damaged areas. Today, damaged areas have a very negative impact on soil ecology. Naturally, this situation has a serious effect on the vegetation cover developing there. It causes them to decrease the composition of the species. In this regard, many effective works have been carried out around the world to restore plant cover, but the participation of algae has been underestimated, and this issue is gaining importance due to its urgency.

Key words. algae, damaged areas, cement plant, plant cover.

Bugungi kunda sanoat zonalarining jadal suratlarda rivojlanib borishi iqtisodiy samaradorlikni oshishiga olib kelmoqda. Aholining ijtimoiy qatlamining asosiy qismida uy-joy, qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyoji aholi sonining ortishi bilan baholanadi. Tabiiyki bu hol aholi soni ortib brogan sari, ularga yanada ko'proq sanoat zonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ko'proq talab etilishiga olib keladi va bu borada dunyo miqyosida ham sanoat zonolari soni ortib bormoqda.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Lekin sanoat zonalarining ortishi atrof-muhitga bir muncha zarar keltirmoqda, ya'ni sanoat zonalarining atroflarida rivojlanib kelayotgan o'simliklar qoplami zararlanmoqda. Ularning tur ko'rsatkichlariga, populyatsiya sonini, arealini kamayishiga olib kelmoqda. Bu esa albatta tabiatning muhim elementi bo'lgan produtsentlarni zararli halokatiga olib keladi.

Zararlangan hududlarda rivojlangan o'simliklar qoplamini qayta tiklash va bu borada suvo'tlarning ishtirokini baholash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan dunyo miqyosida. O'zbekiston hududida bu kabi ilmiy tadqiqotlar endigina rivojlanib kelmoqda va bu yangi ilmiy yo'nalish kabi yangi tarmoqlarini kengaytirmoqda.

Olib borilayotgan tadqiqotlar asosan o'simliklar qoplamini tiklashda suvo'tlar ishtirokini baholashga asoslangan. Suvo'tlar nafaqat tuproq ekologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi va yana shu bilan birgalikda yuksak o'simliklarni rivojlanishini uchun maqbul sharoit yaratadi.

Ko'k-yashil suvo'tlar bakteriyalar bilan kompleks jamoa hosil qiladi va yuksak o'simliklarni rizofera qismini rivojlanishi uchun minerallar to'playdi (Harper, Pendleton, 1993; Evans, 1994).

Sh.J. Tojiboyev, K.Yu. Musayev 67 tur, 14 oilaga mansub o't o'simliklar rizoferasidagi tuproqlardan 67 tur: 23 ko'k-yashil, 27 yashil, 7 diatom, 7 sariq yashil, 3 evglena suvo'tlar turlarini aniqlashgan. Boshqoqdozlar oilasi o'simliklarining rizoferasidan 41, qovoqdozlardan 37, murakkabguldoshlardan 35 takson qayd etilgan. Tomatdozlar, sho'radozlar, labguldoshlar oilalari o'simliklarining rizoferalarida 21-27 takson mavjudligi, gulxayridozlar va soyabonguldosh oila vakillarining rizofera qismidan 7-14 takson qayd etilgan. Barcha holatlarda ipsimon tuzilishlilar ko'p bo'lgan. Rizoferada suvo'tlarning taqsimlanishiga o'simliklarning vegetatsiya davri ta'sir qilgan.

Sh.J.Tojiboyev Toshkent viloyatining o'zlashtirilmagan bo'z tuproqlaridagi suvo'tlarning taksonomik tarkibi, ularning qiyosiy tahlilini o'rgangan (Sh.J.Tojiboyev, 1973). Keyingi yillarda bunday tadqiqotlar respublikamizda amalga oshirilmagan. O.M.Masharipov, M.A. Qo'chqorova, Z.A. O'rmonov g'o'za, bug'doy, beda ekilgan hamda o'zlashtirilmagan bo'z yerlardagi ko'k-yashil suvo'tlarning 78 turi va formalarini aniqlashgan. Ulardan 19 turi azot o'zlashtiruvchi hisoblangan. G'o'za maydonlaridan 48 tur suvo'ti aniqlanib, bug'doy ekilgan tuproqlarda Oscillatoriales tartibidan 34 tur aniqlangan. Bo'z tuproqlardan 32 tur suvo'ti aniqlangan va ular orasida Chroococcales, Nostocales vakillari ko'p turga ega bo'lganligi keltirilgan (O.M.Masharipov, M.A.Qo'chqorova, Z.A.O'rmonov, 1998).

Sariq-yashil suvo't bo'lim turlari Kabirov, Shtina ma'lumotlari bo'yicha tuproqlardagi turli ifloslovchi moddalarga nisbatan eng "sezgir" hisoblanadi. E.A.Shtina ta'kidlashicha sariq-yashil suvo'tlarning hujayralari tuproqlarning "tozaligi va unumdorligi" ni belgilaydi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Bacillariophyta suvo`tlarining hujayralari tez ko`payishlari bilan yangi yashash muhitlarini tez egallaydilar. Shu kabi xususiyatlari Aleksaxina, Shtina, Schluter, Vasser ma`lumotlarida keltirilgan.

V.S.Artomonova (2000) G`arbiy Sibirning Janubiy Sharqiy hududining antropogen ta`sirida transformatsiyalangan tuproqlarning mikrobiologik xususiyatlar bo`yicha tadqiqot ishlarini olib borgan.

E.V.Sugachkova (2000) rekreatsion bosimga duchor bo`lgan hududlarda tuproq suvo`tlari jamoalarining shakllanishi va faoliyat ko`rsatish qonuniyatlarini o`rgangan. Rekreatsion hududlardagi tuproq suvo`tlari jamoalarini har xil turdagi rekreatsion ta`sirlarga chidamlilik chegaralari aniqlangan. Antropogen ta`sir ostida bo`lgan qisman yoqib yuborilgan hududlarda tuproq suvo`tlari tiklovchi suksessiya sifatida vazifa bajarishi aniqlangan. Rekreatsion bosimning o`rtacha intensivligida yashash joylarida tuproq suvo`tlari tegishli xususiyatlarni saqlash bo`yicha moslanish hosil qiladi.

Olib borilgan barcha ilmiy tadqiqotlar zararlangan hududlarda o`simliklar qoplamini tiklashda suvo`tlarning ishtiroki, ularni rizofera qismida yashaydigan suvo`tlar hujayralarining erkin azotni o`zlashtirishi natijasida yuksak o`simliklar qoplamini yanada rivojlanishiga katta ta`sir ko`rsatishi ilmiy asoslab berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Bolishev N.N., Manucharova E.A. O rastitelnosti takirov.-M. 1946-101b.
- 2.M.M.Gollerbax, E.A.Shtina. Pochvenniye vodorosli.-L. “Nauka”, 1969-227 b.
- 3.K.Yu.Musayev.Vodorosli oroshaemix zemel i ix znachenije dla lporodiyax pochv.- T. 1960-200 b.
- 4.Tojiboyev Sh.J. O`simliklar sistematikasi.- T. “O`qituvchi” , 1990-138 b.
- 5.Sugachkova.E.V. Vliyaniye rekreatsionnoy nagruzke na soobshestve pochvennix vodorosley. –U. 2000-122 b.